

O'ZBEK TILIDA SO'Z BIRIKMASI IYERARXIYASI: FE'L VALENTLIGI VA HOKIM-TOBE MUNOSABATLARI

Ziyadullayeva M.M.¹

Annotatsiya:

Maqolada o'zbek tilidagi so'z birikmalari doirasida hokim-tobe munosabatining ierarxik tabiati fe'l valentligi asosida izohlanadi. Yondashuvda fe'l hokim birlik sifatida olinib, uning valentlik uyalar (obyekt, adresat, manba va h.k.) tobe komponentlarning kelishik va ko'makchi vositalar orqali ifodalanishi bilan bog'lanadi. Tadqiqot metodida so'z birikmasi darajasiga moslashtirilgan valentlik-profil (P0/P1/P2) hamda slotlarni aniqlash uchun operatsion diagnostik qoidalar taklif etiladi. Natijalarda 30 ta so'z birikmasi misolida fe'l markazli va ot guruhi ichki iyerarxiyasi (ko'p qavatlilik) ko'rsatiladi, hamda valentlik iyerarxiyani skelet sifatida belgilashi asoslanadi.

Kalit so'zlar: so'z birikmasi, hokim so'z, tobe so'z, fe'l valentligi, aktant, boshqaruv, kelishik, ko'makchi, iyerarxiya, fe'lli birikma.

O'zbek sintaksisida so'z birikmasi hokim va tobe so'zlarning predikativ bo'lmagan bog'lanishi sifatida talqin qilinadi: u gapdan farqli ravishda hukm bermaydi, balki sintaktik munosabatni ifodalaydi [1, 15]. Shu birlikni tahlil qilishda hokim so'zning talabi va tobe komponentning uni to'ldirishi masalasi markaziy o'rin tutadi. An'anaviy izohlarda bu talab ko'pincha boshqaruv doirasida tushuntiriladi, biroq talabning tabiati va miqyosi (qancha va qaysi turdagi tobe unsur kutiladi) har doim ham tizimli model ko'rinishida berilmaydi.

1.1. Nazariy asos va adabiyotlar sharhi

So'z birikmasini ierarxik birlik sifatida talqin qilish, avvalo, sintagmatik munosabat tabiatiga borib taqaladi. F. de Sossyur nutqda birliklar "chiziqli zanjir" da ketma-ket ulanib, sintagma hosil qilishini ta'kidlaydi; bunda birlikning qiymati aynan yonma-yon kelgan birliklar o'rtasidagi munosabat orqali yuzaga chiqadi [11, 70; 123]. Demak, hokim-tobe bog'lanish ham nutq zanjirida namoyon bo'ladigan struktur munosabatdir.

Rus sintaksis an'anasida so'z birikmasi ikki mustaqil so'zning bo'ysunish aloqasi bilan birikishi sifatida izohlanadi: unda bosh va tobe komponent ajraladi, bosh so'zdan tobe so'zga savol qo'yish mumkin [12]. Ushbu ta'rif hokim-tobe munosabatini operatsion diagnostika (savol qo'yish; boshqaruv/kelishuv/bitishuv) bilan bog'lash imkonini beradi.

O'zbek kichik sintaksis doirasida esa so'z birikmasi gapdan farqli ravishda kommunikativ birlik emasligi, ya'ni predikativlik (hukm)ni ifodalamaydigan nominativ birlik sifatida talqin qilinadi [18, 4; 8]. X. Xayrullayevning "So'z, so'z birikmasi va gapning predikativlikka munosabati" mavzusidagi avtoreferatida ham predikativlikning gapga xosligi, birikmaning esa bog'lanish/nomlash sathi ekani masalasi markaziy o'ringa qo'yiladi [13, 4; 8]. Sh. Rahmatullayev til birliklarining pog'onali munosabatini muhokama qilar ekan, "tom ma'nodagi pog'onali munosabat"ni leksema va morfema hamda ulardan tuziladigan kattaroq birlik orasida yuzaga kelishini ko'rsatadi [14]; bu yondashuv birikma ichida ham struktur pog'onalanishni izohlashga metodologik tayanch bo'la oladi.

Valentlik nazariyasi aynan shu bo'ysunish munosabatini formal tarzda "slot-to'ldiruvchi" ko'rinishida modellashtiradi; umumiy va rus tilshunosligida sathlar masalasida so'z birikmasining sintaktik qurilishdagi o'rni alohida ta'kidlanadi [15, 288-290], [16], [17].

Tesnyer an'anasida fe'l aktantlarni o'ziga bog'laydigan markaz bo'lib, u boshqaradigan aktantlar soni va turi fe'l valentligini belgilaydi; shu asosda fe'llar monovalyent, divalyent, trivalyent turlarga ajratiladi [2, 5-6]. Lingvistik sharhlarda valentlik predikatning argumentlar soni va turlarini belgilash xususiyati sifatida izohlanadi [3]. O'zbek

¹Ziyadullayeva Madina Mahmajab qizi, Samarqand davlat chet tillari institute tayanch doktoranti

tilshunosligida ham fe'l valentligini alohida tadqiq etish zarurligi, uning sintaktik-semantik ko'lami muhokama qilinadi [4, 209–211].

Maqolaning maqsadi — o'zbek tilida so'z birikmasi iyerarxiyasini fe'l valentligi va hokim-tobe munosabatlari uyg'unligida bayon qilish; faqat so'z birikmalari misolida valentlik slotlarining kelishik/ko'makchi vositalar orqali qanday realizatsiya qilinishini ko'rsatish; hamda so'z birikmasi darajasiga mos valentlik-profil va diagnostik qoidalar taklif etish.

II. Metodlar

2.1. Tadqiqot obyekti va birliklar chegarasi

Tadqiqot obyekti — so'z birikmalari. Metodik prinsip: misollar kesimsiz, ya'ni predikativliksiz beriladi (fe'l hokim komponent harakat nomi/infinativ: -moq / -ish). Gap shakllari (masalan, "Talaba kitob o'qidi") kiritilmaydi.

2.2. Operatsion tushunchalar

Hokim so'z (H) — birikmaning markazi, tobe unsurlarga "joy" ochuvchi birlik. Tobe so'z (T) — hokim so'z talabini kelishik/ko'makchi orqali to'ldiruvchi birlik. Slot (valentlik uyasi) — fe'lning talab qilishi mumkin bo'lgan tobe komponent turi.

2.3. Valentlik-profil (so'z birikmasi darajasi uchun)

So'z birikmasi darajasida (subyekt odatda ifodalanmasligi sabab) quyidagi soddalashtirilgan profil qo'llanadi: P0 — obyekt sloti talab qilmaydigan fe'l; P1 — bitta majburiy slot (odatda obyekt) talab qiladigan fe'l; P2 — ikki majburiy slot (obyekt + adresat/manba) talab qiladigan fe'l. Bu profil Tesnyer valentlik tasnifining so'z birikmasi darajasiga moslashtirilgan amaliy ko'rinishi sifatida talqin qilinadi [2, 5–6].

2.4. Slotlarni aniqlash diagnostik qoidalari

Slotlar quyidagi morfologik signallar asosida aniqlanadi: to'ldiruvchi (nima?) — ko'pincha tushum -ni, ba'zan ko'makchi bilan; adresat (kimga?) — yo'nalish -ga; manba(kimdan?) — chiqish -dan; hol— -da, ravish, ko'makchi. O'zbek tilida valentlikning sintaktik-semantik tabiati, kelishiklar bilan bog'lanishi muhokama qilingan ishlarga tayangan holda bu qoida amaliy tahlil mezoni sifatida olinadi [4, 209–211].

2.5. Material (misollar korpusi)

Natijalar bo'limida 30 ta so'z birikmasi (M1–M30) ishlatiladi. Misollar o'zbek adabiy tilida keng qo'llanadigan, normativ foydalanishga mos konstruksiyalar sifatida tanlangan; har birida iyerarxiya "hokim → tobe" ko'rinishida beriladi.

III. Natijalar

3.1. P0 profil: obyekt sloti bo'lmagan fe'l markazli birikmalar

1. M1. Toshkentga ketmoq — ketmoq → Toshkentga (o'rin holi)
2. M2. uyga qaytmoq — qaytmoq → uyga (o'rin holi)
3. M3. ertalab kelmoq — kelmoq → ertalab (payt holi)
4. M4. kechqurun uchrashmoq — uchrashmoq → kechqurun (payt holi)
5. M5. tez yugurmoq — yugurmoq → tez (holat holi)
6. M6. sekin gapirmoq — gapirmoq → sekin (holat holi)
7. M7. bozorda ishlamoq — ishlamoq → bozorda (o'rin holi)
8. M8. maktabda o'qimoq (obyektsiz, umumiy) — o'qimoq → maktabda (o'rin holi)
9. M9. do'sti bilan sayr qilmoq — sayr qilmoq → do'sti bilan (ko'makchili to'ldiruvchi)
10. M10. ota-onasi bilan yashamoq — yashamoq → ota-onasi bilan (ko'makchili to'ldiruvchi)

Natija (P0): P0 profilda fe'lning valentligi obyekt slotini talab qilmagani uchun iyerarxiya "fe'l → hol/ko'makchili tobe" orqali tashkil topadi. Tesnyer yondashuvida bunday fe'llar monovalyent konstruksiyalarga yaqin turadi [2, 5–6].

3.2. P1 profil: bitta majburiy obyekt slotli birikmalar

11. M11. kitobni o'qimoq — o'qimoq → kitobni (vositasiz to'ldiruvchi)
12. M12. maqolani yozmoq — yozmoq → maqolani (vositasiz to'ldiruvchi)
13. M13. xatni jo'natmoq — jo'natmoq → xatni (vositasiz to'ldiruvchi)

14. M14. hisobotni tayyorlamoq — tayyorlamoq → hisobotni (vositasiz to'ldiruvchi)
15. M15. shartnomani imzolamoq — imzolamoq → shartnomani (vositasiz to'ldiruvchi)
16. M16. muammoni hal qilmoq — hal qilmoq → muammoni (vositasiz to'ldiruvchi)
17. M17. o'quvchini maqtamoq — maqtamoq → o'quvchini (vositasiz to'ldiruvchi)
18. M18. do'stini kutmoq — kutmoq → do'stini (VT)
19. M19. kutubxonada kitobni o'qimoq — o'qimoq → kitobni (VT); o'qimoq → kutubxonada (o'rin holi)
20. M20. kutubxonada yangi kitobni o'qimoq — o'qimoq → kitobni (VT); o'qimoq → kutubxonada (o'rin holi); kitob → yangi (aniqllovchi)

Natija (P1): P1 profilda valentlik iyerarxiyaning skeletini "fe'l → obyekt" shaklida belgilaydi; joy/vaqt/usul kabi unsurlar ixtiyoriy qatlam sifatida fe'lga ulanadi. M20 misolida iyerarxiyaning ikki darajasi (fe'l guruhi va ot guruhi) birgalikda namoyon bo'ladi [1, 15].

3.3. P2 profil: ikki majburiy slotli birikmalar

21. M21. talabaga kitob bermoq — bermoq → kitob (VT); bermoq → talabaga (ADDR)
22. M22. bolaga sut bermoq — bermoq → sut (VT); bermoq → bolaga (ADDR)
23. M23. do'stiga xabar yubormoq — yubormoq → xabar (VT); yubormoq → do'stiga (ADDR)
24. M24. mijozga javob yo'llamoq — yo'llamoq → javob (VT); yo'llamoq → mijozga (ADDR)
25. M25. bolaga sovg'a olib bermoq — olib bermoq → sovg'a (VT); olib bermoq → bolaga (ADDR)
26. M26. ustozdan maslahat so'ramoq — so'ramoq → maslahat (VT); so'ramoq → ustozdan (manba)
27. M27. do'stidan kitob so'ramoq — so'ramoq → kitob (VT); so'ramoq → do'stidan (manba)
28. M28. rahbardan ruxsat so'ramoq — so'ramoq → ruxsat (VT); so'ramoq → rahbardan (manba)
29. M29. ustozdan topshiriq olmoq — olmoq → topshiriq (VT); olmoq → ustozdan (manba)
30. M30. do'stidan yangilik eshitmoq — eshitmoq → yangilik (VT); eshitmoq → do'stidan (manba)

Natija (P2): P2 profilda valentlik iyerarxiyani ayniqsa qat'iy belgilaydi: fe'l bir vaqtda ikki turdagi majburiy tobeni (TO'LDIRUVCHI va ADDR/SRC) ochadi. O'zbek tilida bunday slotlar ko'pincha -ga va -dan kelishiklari orqali signal qilinadi [4, 209–211].

IV. Muhokama

4.1. Valentlik-profilning nazariy qiymati

Taklif etilgan P0/P1/P2 valentlik-profil so'z birikmalarini faqat turkum mezoni bilan emas, balki hokim fe'lning talab miqyosi bilan sistemalashtirish imkonini beradi. Bu, an'anaviy o'zbek sintaksisidagi obyektli/holli birikmalar ajratimini valentlik nuqtayi nazaridan izohlashga xizmat qiladi [1, 15].

4.2. Iyerarxiyaning ikki qavatligi

Natijalarda ko'ringan muhim holat: so'z birikmasi iyerarxiyasi kamida ikki qavatli — fe'l markazli qavat (fe'l → to'ldiruvchi/adresat/manba/hol) va ot guruhi qavati (ot → sifat/qaratqich/son). M20 kabi misollar fe'l valentligi iyerarxiyaning skeletini bersa-da, tobe komponentlar ichida ham ikkilamchi iyerarxiya mavjudligini ko'rsatadi [7, 291–293].

4.3. Chegaraviy holatlar va kelgusidagi tekshiruvlar

Valentlik doirasida slotning tushirilishi (ellips) va ko'makchili konstruksiyalarda obyekt/hol chegarasining noziklashishi kuzatiladi. Shu sabab kelgusida profilni kengroq

materialda sinash va slotlarning majburiy–ixtiyoriy darajasini qat’iyroq belgilash maqsadga muvofiq [4, 209–211], [6, 101–105].

V. Xulosa

Maqola o‘zbek tilidagi so‘z birikmasi iyerarxiasini fe‘l valentligi va hokim–tobe munosabatlari uyg‘unligida izohladi. P0/P1/P2 valentlik-profil fe‘l boshqaruvli birikmalarni obyekt slotining mavjudligi va ko‘lamiga ko‘ra tizimlashtirdi; 30 ta misol tahlili valentlikning iyerarxiyani skelet sifatida belgilashini ko‘rsatdi. Shuningdek, so‘z birikmasi iyerarxiasining fe‘l markazli va ot guruhi ichki qatlamlardan tarkib topishi asoslandi. Natijada valentlik-profil va “slot+signal” diagnostik qoidasi o‘zbek so‘z birikmalarini izchil tavsiflash uchun qulay nazariy vosita sifatida taklif etildi.

Ilmiy yangilik

• So‘z birikmasi darajasiga mos P0/P1/P2 valentlik-profil modeli taklif etildi (predikativliksiz tahlil). [2, 5–6], [4, 209–211]

• Slotlarni kelishik/ko‘makchi asosida aniqlashga xizmat qiluvchi “slot+signal” operatsion diagnostik qoida ishlab chiqildi va 30 misolda qo‘llandi. [1, 15], [4, 209–211]

• So‘z birikmasi iyerarxiasining ikki qavatligi (fe‘l markazli va ot guruhi ichki iyerarxiyasi) yagona tahlil mexanizmi orqali ko‘rsatildi. [1, 15], [7, 291–293]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jabbarov R. O‘zbek tili so‘z birikmalari. Ziyonet resursi (PDF): <https://api.ziyonet.uz/uploads/books/401/54e86a9f95059.pdf>
2. Tesnière L. Éléments de syntaxe structurale. Valentlik va aktantlar haqidagi material (PDF/scan): <https://www.home.uni-osnabrueck.de/bschwisc/archives/tesniere.pdf>
3. Valency (linguistics). Umumiy sharh: [https://en.wikipedia.org/wiki/Valency_\(linguistics\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Valency_(linguistics))
4. Ro‘ziqulov S. Fe‘lda valentlik. (PDF): <https://in-academy.uz/index.php/cajmrms/article/download/49383/31416/54161>
5. Abdullayeva O.X., Nizomova va boshq. O‘zbek tilshunosligida so‘z birikmasiga ta‘rif va tasnif masalalari (PDF): https://tsuull.uz/sites/default/files/xal.konf_abdullayeva_nizomova.pdf
6. Jahon va o‘zbek tilshunosligida valentlik masalasi (ResearchGate): https://www.researchgate.net/publication/387710211_JAHON_VA_O%27ZBEK_TILSHUNOSLIGIDA_VALENTLIK_MASALASITHE_PROBLEM_OF_VALENCE_IN_WORLD_AND_UZBEK_LINGUISTICSPROBLEMA_VALENTNOSTI_V_MIROVOM_I_UZBEKSKOM_AZYKOZNANII
7. Xudayarova S. O‘zbek tilidagi so‘z birikmalarini modellashtirish (LSQ va qoliplar) (PDF): <https://compling.navoiy-uni.uz/index.php/conferences/article/download/318/321/955>
8. De Gruyter. Valentlik nazariyasi va grammatikadagi o‘rni (bob): <https://www.degruyterbrill.com/document/doi/10.1515/9783110198775.1.3/html>
9. Tesnière asari bo‘yicha ilmiy sharh (Revue Romane, PDF): https://tidsskrift.dk/revue_romane/article/download/29324/26260/68964
10. So‘z birikmasi bo‘yicha o‘quv-uslubiy slayd (PDF): https://iht.uz/download/slides/2kurs/mothertongue/003_mavzu_3_dars_3_kurs_2_So%27z%20birikmasi_Tobe_bog%27lanish.pdf
11. Saussure F. de. Course in General Linguistics. (PDF): https://pfy.at/wp-content/uploads/2022/01/saussure_course_in_general_linguistics.pdf
12. Gramota.ru. “Словосочетание. Связь слов в словосочетании” (ma‘lumotnoma): <https://gramota.ru/biblioteka/spravochniki/russkij-yazyk-kratkij-teoreticheskij-kurs-dlya-shkolnikov/predlozhenie>
13. Xayrullayev X. Z. So‘z, so‘z birikmasi va gapning predikativlikka munosabati: filologiya fanlari nomzodi diss. avtoreferati. Toshkent, 2001.
14. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent, 2006.

15. Solntsev V.M. Язык как системно-структурное образование. Москва, 1971.
16. Rojdestvenskiy Yu.V. Лекции по общему языкознанию. Москва, 1990.
17. Maslov Yu.S. "Об основных и промежуточных ярусах в структуре языка". Вопросы языкознания, 1968, №4.
18. Turabov A.M. Kichik sintaksis muammolari: filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2023. (SamDU rasmiy sayti, PDF).